

ESHQOBIL SHUKURNING "BOBO SO'Z IZIDAN" ASARI LINGVOPOETIKASI.

Rajabova Sabohat Jo'ramurod qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Eshqobil Shukurning nomi adabiyot ixlosmandlariga, soʻz va maʼrifat shaydolariga katta qalbli, mahoratli usta shoir, tanlagan mavzulari Vatan ruhi, eldoshlar koʻngli bilan tutash nosir sifatida tanish. Uning badiiy publitsistikasi esa mehr va muhabbat bilan, insonni insondek koʻrmoq orzusida alagʻda yurgan qalam sohibining teran va vazmin fikrlar oqimida qogʻozga tushadiki, oʻquvchi muallif ovozi baayni eshitib turgandek boʻladi. Ushbu maqolada Eshqobil Shukurning “Bobosoʻz izidan” asari lingvopoetikasi haqida maʼlumot berilgan.*

Kalit soʻzlar: *lingvopoetik, badiiy-estetik, ilm qonuniyatlari, fikr-mulohaza, tahlil, akustik, badiiy publitsistika.*

Soʻz qudratli kuch. Soʻzdan qalqon ham, qilich ham bunyod etish mumkin. Albatta, soʻz oʻz egasiga tushsa, oʻz oʻrnini topa olsa. Soʻz insonga qalbidagini izhor etish, ayni damda koʻnglidagini yashirish imkonini ham beradi. Shu sababli ham soʻzda sehr, sheʼrda hikmat bor, deyilgan. Muallifning “Bobosoʻz izidan” (“Adabiyot” nashriyoti) kitobini mutolaa qilib, yuqoridagi fikrlar xayoldan oʻtdi. Ushbu asarning lingvopoetik tahlilini koʻrib chiqsak. Undan oldin esa lingvopoetika oʻzi nima? degan savolga qisqacha javob beraylik.

Tilshunoslik badiiy adabiyot bilan ham uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina boʻlib qolmay, balki tinglovchiga taʼsir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi anʼanaviy va sistem-struktur tilshunoslikning oʻrganish obyekti boʻlsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning oʻrganish obyektidir. Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli boʻlib, badiiy asarlarda qoʻllanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini oʻrganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni oʻrganuvchi boʻlimidir. Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamaları tez-tez uchrab turadi. Mazkur atamalar ifodalagan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin oʻzaro maʼlum jihatlari bilan farq qiladi. «Obraz», «uslub», «koʻchim (trop)», «badiiy til», «stilistika», «poetika» kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetikaga daxldor tushunchalardir.

2018-yili oʻqirmanlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan asarlardan biri boʻlgan asar bu “Bobosoʻz izidan”dir. Bu oʻziga xos lugʻat bir baravar kattarib, ona tilimizda unut boʻlgan 418 ta soʻzni jamlagan holda qayta nashr etildi. Dunyoda yiliga

oʻnlab tillar batamom yoʻq boʻlib ketayotgan pallada shunday kitobning maydonga kelishi katta gap. Oʻzbek tilining naqadar serqatlam tarixi borligini, shu tilda yashayotganimizning oʻzi katta saodat ekanini kitob mutolaasidan soʻng chuqur his qilasiz. Muallif tilshunos emasman, tilshunoslikka daʼvogar ham emasman, deya bot-bot taʼkidlaydi. Ammo “Bobosoʻz izidan” kitobidagi soʻzlarning har biri uchun oʻnlab qoʻlyozmalar sinchiklab tekshirilgani yaqqol seziladi. Eshqobil Shukur har bir soʻzga tirik inson bilan muomala qilayotgan kabi yondashib, katta zahmat, chinakam fidoyilik koʻrsata olgan. Buning uchun mutaxassis boʻlishning oʻzi kam. Shu xalqqa, shu xalq soʻzlashadigan tilga katta muhabbat ifodasi bu!

Kitobning ruhiyatiga kirish uchun bittagina misol keltirib oʻtsak: “Hamma tomoni okean, dengiz, daryo yoki koʻl suvi bilan oʻralgan quruqlik tilimizda “orol” soʻzi bilan ifodalanadi. Bu soʻz qadimgi “Irq bitigi”da aral shaklida qayd etilgan. Oʻzbek tilining etimologik lugʻatida izohlanishicha, qadimgi tilimizda ar degan feʼl boʻlgan va “ayirish”, “ajratib qoʻyish” degan maʼnolarni anglatgan. “Orol” soʻzi shu “ar” feʼlidan kelib chiqqan boʻlishi mumkin. Chunki orol suvdan ayrilib, ajralib turadi. Yana baʼzi manbalarda esa orol soʻzi “oraliq” maʼnosini anglatuvchi “ora” soʻzidan kelib chiqqan boʻlishi mumkin, degan faraz ham ilgari suriladi. Mahmud Koshgʻariyda “ora” soʻzi ara shaklida kelgan: kishi ara kirdim – odamlar orasiga kirdim.

Kitobdan oʻrin olgan yuzlab soʻzlarning har biri mutolaa davomida oʻquvchini olis moziyga eltadi. Yurtning tadrijiy tarixi qanday bosqichlarni boshdan kechirgan boʻlsa, ona tilimiz esa bundan ham qadim yoʻlni bosib oʻtganiga shohid boʻlasiz. Ushbu kitob soʻzlar taftishi, elakdan oʻtkazilgan qanchadan-qancha fikrlar xulosasi jam boʻlgani bilan, zar qadrini zargar biladi, deganlaridek, soʻzni qadrllovchi har bir kishi uchun qadrlidir.

Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashabbusi bilan nashr etilgan Eshqobil Shukurning “Bobo soʻz izidan” kitobi... Unga vaqtli matbuotdagi oʻsha kichik-kichik chiqishlar jamlangan. Kitobdagi ayrim soʻzlar xususidagi maqolalar menga tanish boʻlsa-da, ularni qayta oʻqib chiqdim. Oʻqib boʻlgach, oʻyladimki, ehtimol, bugungi shiddatkor zamon kishisiga shunday qisqa, loʻnda, ortiqcha badiiy boʻyoqlarsiz ifoda qilingan mulohazalar kerakdir!..

Odatda, soʻzni tadqiq qilish deyilsa, tilshunos olimlar zimmasidagi yumush, deb tushunamiz. Chunki ular til va uning tarixi, taraqqiyotini oʻqib-oʻrganadi, tadqiqotlar olib boradi. Ammo bu faqat olimlarning ishigina emas, balki soʻz bilan ishlaydigan (yashaydigan) har bir ziyolining burchlaridan biri hisoblanadi. Menimcha, Eshqobil aka buni ich-ichdan his qilib, soʻz diyoriga sayohat qila boshlagan. Sayohatlari davomida duch kelgan ajoyibotlarni ixcham holda xat qilaroq, boshqalarga joʻnatib turgan.

Muallif izlanishlari davomida soʻz tanlar ekan, maʼlum tizim asosida ish tutmaydi, lekin duch kelgan soʻzni ham tahlilga tortavermaydi. Kitobni oʻqib bilasizki, sheʼru dostonlar, maqol va mataldagi ayrim sohir soʻzlar yoshligida shoirning shuuriga

sirliligicha singib qolgan, ba'zi hollarda o'zaro suhbatlar jarayonida bahsga tortilgan so'zlar haqidagi fikr-mulohazalar, hukmlar shoirni qoniqtirmagan. Shuning uchun u jiddu jahd bilan ishga kirishib, o'nlab manbalarni titkilaydi, muqoyasa qiladi, ko'pni ko'rgan kishilar bilan fikrlashadi. So'ng barini yig'ib, o'z mulohazalarini bayon etadi.

Muallif kitobi haqida fikr yuritib, shunday deydi: “Bu kitobni tayyorlash jarayonida garchi ko'p manbalarni ko'rib chiqsam-da, ba'zi so'zlar masalasida xato qilmayapmanmi degan xijolatga ham bordim. Lekin faraz fikrni harakatga keltiradi”. Darhaqiqat, ayrim so'zlar haqidagi mulohazalarda shoir faqat o'z qarashlari, farazlariga tayanganday taassurot qoldiradi, shuning uchun ham u “bo'lishi mumkin”, “bo'lsa kerak”, “buyam bir fikrda” degan jummalarni qistirib ketadi. Biroq, shunday esada, shoirning taxminu farazlarida asos borday ko'rinadi, beixtiyor sizni ham o'ylashga, so'zning tarixi va taqdiri xususida fikr yuritishga undaydi.

Shu o'rinda yana bir mulohaza. Agar xuddi shu so'zlar jamlanib, uni biror-bir tilshunos olim kitob qilganida, ehtimol, u turli ilmiy mulohazalar, iqtiboslarga to'lgan bo'lardi. Ilm qonuniyatlariga rioya qilguvchi olim, albatta, farazlardan biroz chekinadi. Lekin “Bobo so'z izidan”ning muallifi shoir bo'lgani bois, uning mulohazalarida shoirona nigoh, shoirona tasavvur, shoirona ifoda bor, shu sababdan ham o'quvchi kitobni zerikmasdan mutolaa qiladi. Shoir, o'zi ta'kidlaganidek, bu kitobi bilan olimlikka da'vo qilmaydi. Lekin olimlikka da'voyim yo'q, deb quruq farazlaru unda-bunda eshitgan taxminlarni kitobga jamlamaydi. Muallif “Devonu lug'otit-turk”, “Muhokamat ul-lug'atayn”, “O'zbek tilining izohli lug'ati”, “O'zbek tilining etimologik lug'ati”, “Navoiy asarlari lug'ati” kabi manbalardan tashqari, boshqird, oltoy, qirg'iz, qarachay-malkar, qozoq, turkman kabi o'nga yaqin turkiy xalqlar lug'atlarayu xalq og'zaki ijodi namunalariga murojaat qiladi, ularni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi, qay biri asliyatga yaqinroq ekani xususida fikr yuritadi.

Kitobdagi hech bir mulohaza sizni befarq qoldirmaydi. Masalan, tilimizdagi quyidagi ikki so'zga e'tibor bering: sayr va sayl. Muallif ta'kidicha, sayl so'zi sayr so'zining o'zgargan shakli hisoblanadi. Sayl so'zi esa aslida “sel, shiddatkor yomg'ir, kuchli oqim” va hatto “ofat” kabi ma'nolarni anglatar ekan. Demak, saylga chiqmoq “ofatga, kuchli yomg'irga chiqmoq”, saylgohga bormoq esa “ofat, kuchli toshqin bo'layotgan joyda bo'lish” degan ma'noni bildiradi.

Yoki bo'lmasa, neft so'zi haqida eshiting. Yeros^{ti} boyligi bo'lmish neft ko'pchilikning nazdida chet tillardan o'zlashganday tasavvur uyg'otadi. Aslida u sof turkona ekan. Faqat bu so'z avvallari naft shaklida ishlatilgan ekan.

Lekin kitobda ayrim o'rinlar borki, ularni qayta mushohada qilish, boshqa manbalarga ham qayta murojaat etish kerak nazarimizda. Kitobning 78-betida “Inak”ning enasi haqida” sarlavhali maqola bor. Inak – adabiy tilimizdagi sigir so'zining shevadagi ko'rinishi. Samarqand, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy viloyatlarida shu so'z ishlatiladi. Muallif nazdida, “inak” so'zi ona ma'nosini anglatadigan “ena” so'zi bilan bog'liq: “ena” so'zining “ina” shakli ham bo'lib, unga erkalash ma'nosidagi “-ak”

qo‘shimasi qo‘shilgan. Taniqli sharqshunoslar Vilgelm Shott, Vilgelm Bang va Andrey Kononovlar ham shunday sharh berishgan ekan. Muallif o‘z fikrlarini rivojlantirib, bunday yozadi: “Onam bir gal qahatchilik yillaridan bolalarini sigirining suti bilan olib chiqqan bir ayol haqida gapirib bergan edi. Omon-omon bo‘lgach, ayolning sigiri kasal bo‘ladi, uni so‘yishmoqchi bo‘lganlarida, ayol “Bu inak bolalarimning enasi, undan sut qarzimiz bor”, deb so‘ydirmaydi. Sigir o‘lgach, uni hurmatlab ko‘madilar”. Bir qarashda bu fikrlarda jon borday ko‘rinadi. Ammo boshqa bir mulohaza ham bor. Til tarixidan ma‘lumki, o‘zbek (turkiy) tili taraqqiyoti to‘rt bosqich: qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili davrlariga bo‘linadi. Qadimgi turkiy til davrida (VI-VII asrlar) sigir ma‘nosida “ingek” so‘zi ishlatilgan. Ayrim shevalarimizda qo‘llanadigan “inak”, “ingek” so‘zining talaffuzdagi buzilgan shakli bo‘lishi mumkin.

Kitobda har bir so‘z tadqiqi sarlavha ostida beriladi. Ayrim sarlavhalar shoirona topqirlik bilan qo‘yilganki, maqola nomining o‘ziyoq o‘quvchi diqqatini tortadi, maqolaning ayni mag‘zini ifodalaydi. Masalan, “Tirik” nimasi bilan tirik”, “Targ‘il sigirning tarog‘i”, “Gibraltar bo‘g‘ozidagi bo‘g‘oz sigir”, “O‘rtoqlar o‘rtasidani o‘rtaliq”, “Narxning navosi”, “Issiq-sovuq va sevgi”, “Tipratikanning kiprigi”.

Kitobdagi tanlangan so‘zliklarning ko‘pi, asosan, turkiy – o‘zbekcha so‘z. Ko‘p o‘rinlarda shoir biror tushunchani ifodalovchi sof o‘zbekona so‘z bo‘laturib, ajnabiylarini ishlatib yurganimizdan biroz yozg‘iradi, ayrim noto‘g‘ri qo‘llab yurgan so‘zlarimiz aslida boshqacha ekanini isbotlashga urinadi. Aynan shu shoirning millatparvarligi, tilparvarligidan nishona. Hozir nafaqat qarashlar, balki tillar ham kurashmoqda. Ayrim tillar boshqasini mahv etmoqda. Ayrim chet tilini o‘rganayotgan yoshlardan ko‘p eshitganman: o‘zbek tili boshqa tillarga qaraganda qashshoqroq, hamma tushunchalarni ham to‘la ifodalay olmaydi... Afsuski, bu – o‘zbek tili tabiatini yaxshi his qilmaydigan, tobora o‘z tilidan uzoqlashayotgan avlodning xulosasi.

Xo‘sh, bunga sabab nima?

Birlamchi sabab shuki, ona tili darslarida (darsliklarida ham) o‘quvchilarga o‘zbek tiliga bo‘lgan muhabbat yaxshi singdirilmaydi, darslarda faqat grammatik qoidalar, mashqlar bilan o‘zbek tili haqidagi tasavvurlar “boyitiladi”. Hatto oliy o‘quv yurtlarida ham turkiy qabilalar ko‘proq harbiy bo‘lgan, shuning uchun sof o‘zbekcha (turkiy) so‘zlar qo‘pol, dag‘al, quloqqa xunuk eshitaladigan so‘z bo‘lgan, degan tushuncha singdiriladi. Aslida tilning eshitalish – akustik jihati emas, uning ifoda imkoniyatlari, lisoniy jozibasi, go‘zal tabiati tilning asosiy belgisi hisoblanadi. Shu ma‘noda, millat farzandlariga o‘zbek tilining bor imkoniyatlarini, uning boyligini, latifligini anglatish lozim. Darhaqiqat, “Almopish”, O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari, “Devonu lug‘otit-turk”, “Qutadg‘u bilig” kabi asarlar yaratilganda “bu dunyolar yosh edi”. O‘zbek qalbi, o‘zbek ruhining qiyofasini ko‘raman degan odam yuqorida zikr qilingan kitoblarni o‘qishi kerak, xalq og‘zaki ijodining barcha namunalarini mutolaa qilishi lozim.

...So‘z qon kabi Bobodan Nabiraga o‘tadi. Tiynati tirik, o‘zligi o‘lmagan Nabira o‘zining yashayotganiga sabab bo‘layotgan qonning taftini sezib turishi kerak. Lekin ko‘pchiligimiz qonimiz bobomizning qoni bilan bir ekanini unutib qo‘yamiz. Zamonaviy tib ilmida qondoshlikni isbotlash uchun DNK natijalari olinadi. “Devonu lug‘otit-turk”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”, “Navoiy asarlari lug‘ati”lari turli davrlardagi DNKlarimiz. Shular qatorida turguvchi DNK – “Bobo so‘z izidan” ham qondoshlarimizni eslatib turadi...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<https://www.wordunscramble>
- 2.<https://cyberleninka>.
- 3.<https://www.iberdrola.com>